

GARSEN SINDROMI

Bir necha kranial nervlarning bir tomonlama zararlanishiga *Garsen sindromi* deb aytiladi. Kranial nervlar faqat bir tomonda zararlangani uchun Garsen sindromi *gemikranial polinevropatiya* nomini ham olgan. Ikkinchi tomondagi kranial nervlar zararlanmaydi. Garsen sindromi deyarli doimo kalla suyagining asosidan o'sgan o'smalarda rivojlanadi. Bular xondroma yoki xondrosarkomalar bo'lib, ular burun-halqum sohasi, ponasimon suyak yoki chakka suyagi piramidasidan o'sadi. Garsen sindromida, albatta, ushbu suyaklar destruksiyasi ham kuzatiladi.

Manba: © Z. Ibodullayev. **Asab kasalliklari. 2-nashr. Darslik, Toshkent, 2021., 960 b.**

© Z. Ibodullayev. **Umumiy nevrologiya. Darslik. Toshkent, 2021., 312 b.**

© **Ibodullayev ensiklopediyasi**

© www.asab.uz